

**«O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT  
MILLIY BANKI» AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARNING  
NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHINI QAYTA O‘TKAZISH  
TO‘G‘RISIDAGI XABAR**

**Jamiyatning nomi:** «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki» aksiyadorlik jamiyati.

**Joylashgan joyi:** 100084, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko‘chasi, 101-uy.

**Elektron pochta manzillari:** info@nbu.uz, webmaster@nbu.uz.

**Qayta yig‘ilish o‘tkazish sanasi va manzili:** 2022 yil 29 iyul, soat 10:00. Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko‘chasi, 101-uy.

**Aksiyadorlarning reyestri shakllantiriladigan sana:** 2022 yil 7 iyul.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunning 68-moddasiga muvofiq, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tqazish uchun kворum bo‘lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi e‘lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig‘ilishini o‘tkazishda kun tartibini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil 13 iyuldagi navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kворumiga ega bo‘lmadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonunning 68-moddasiga ko‘ra,

2022 yil 13 iyuldagi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun kворum bo‘lmaganligi sababli, jamiyat aksiyadorlarning takroriy navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi 2022 yil 29 iyul kuni qilib belgilandi.

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibi o‘zgarishsiz qoldirildi.

1. “O‘zmilliybank” AJ ning 2021 yil uchun sof foydasini taqsimlash
2. “O‘zmilliybank” AJ ustav kapitalini ko‘paytirish
3. Qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlash
4. “O‘zmilliybank” AJ taftish komissiyasining faoliyatini tugatish.